



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 29 - sentabr

61-8-0-F/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 18-dekabrda 348-sonli, 2017-yil 24-oktyabrda 868-sonli qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2009-yil 22-iyunda 350-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini muddatli harbiy xizmatga va muqobil xizmatga chaqiruvga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish, muddatli harbiy xizmatchilarni rezervga va muqobil xizmatdagilarni zaxiraga bo‘shatish to‘g‘risida”gi nizom talablariga asosan 2021-2022 o‘quv yilida Surxondaryo viloyatida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik ishlarini takomillashtirish maqsadida:

1. 2021-2022 o‘quv yilida Surxondaryo viloyatida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik ishlarini tashkillashtirish bo‘yicha asosiy tadbirlar rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi (I.Kambarov):

viloyatdagi umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida, o‘rta maxsus kasb-hunar kollejlarda va litseylarida chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni tashkil etilishini va amalga oshirilishini nazorat qilib, natijalarini umumlashtirib borsin;

bu tizimni yanada yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘rib, o‘quv muassasalarining chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilariga amaliy yordam ko‘rsatib borsin;

umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida, o‘rta maxsus kasb-hunar kollejlarda va litseylarda, o‘quvchilar bilan chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanining o‘qitilishini o‘rganib, o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida ma‘ruzalar o‘tkazib borish ishlarini amalga oshirsin;

umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida “Temurbeklar”, “Vatanparvarlar”, kasb-hunar maktablari va akademik litseylar o‘quvchilari o‘rtasida “Burgut” harbiy sport musobaqalarining sifatli tashkil etilishi va o‘tkazilishi bo‘yicha amaliy

yordam ko'rsatsin;

umumiy o'rta ta'lim maktablarining, o'rta-maxsus kasb-hunar kollejlarning va akademik litseylarining o'quvchilariga harbiy qismda muddatli harbiy xizmatchilarning kundalik faoliyati, ularning maishiy ta'minoti, ularga yaratilgan shart-sharoitlar, shuningdek, qurol-aslaha, harbiy texnika namunalari bilan tanishtirish ishlari ekskursiyalar tashkil etib borsin;

shahar va tumanlarda joylashgan umumiy o'rta ta'lim maktablari va o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarda akademik liseylarining o'quvchilari bilan, shuningdek, muddatli harbiy xizmatni tamomlab kelgan fuqarolar o'rtasida Mudofaa vazirligining oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish borasida targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada kuchaytirsin;

viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi huzuridagi chaqiriluvchilarni harbiy texnika mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlash Markaziga mutaxassislar tayyorlash, yuboriladigan chaqiriluvchilarni saralab olish, ularni tibbiy ko'rikdan sifatli o'tkazish, bitirgan mutaxassislarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar safiga to'liq yuborilishini ta'minlasin.

3. Viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi (I.Kambarov), viloyat Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (R.Salomova), viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi (S.Hamidova) hamkorlikda belgilangan tartibda ta'lim muassasalarida chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari tomonidan o'quvchilarning o'qitilishi va hujjatlari yuritilishining muntazam o'rganib borilishini tashkil etsin.

4. Termiz davlat universiteti (A.Maraximov), Toshkent davlat Texnika universiteti Termiz filiali (U.Axmedov), viloyat Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (R.Salomova):

viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi bilan hamkorlikda viloyatdagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida va litseylarida chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining o'qitilishini sifatli tashkil etish, bu tizimni yanada yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirsin;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida va akademik litseylarida chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining o'quv moddiy bazasini doimiy ravishda takomillashtirib borsin.

5. Viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi (S.Hamidova):

barcha umumta'lim maktablarida 2021-yil 1-sentabr kuniga qadar tuman va shahar hokimliklari bilan hamkorlikda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarining xonalari vatanparvarlik ruhida to'liq jihozlanishini, chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining o'quv moddiy bazasi bilan boyitilishini va mustaqillik yillarida vatanimiz sarhadlarini himoya qilishda qahramonlarcha halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning hayoti va faoliyatini yoritib beruvchi xotira burchaklari tashkil etilishini ta'minlasin;

yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ta'lim sohasida qat'iy intizomga rioya etilishini ta'minlash maqsadida harbiy sohada ishlab, nafaqaga chiqqan munosib zaxiradagi

ofitserlar va serjantlar, harbiy xizmatchilarni umumiy oʻrta taʼlim maktablariga direktor, direktor oʻrinbosarlari va chaqiriqqa qadar boshlangʻich tayyorgarlik fani oʻqituvchisi lavozimlariga tayinlash masalalari boʻyicha viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi bilan hamkorlikda ishlarni amalga oshirsin.

6. Viloyat Sogʻliqni saqlash boshqarmasi (K.Abduvoxidov):

viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi bilan hamkorlikda chaqiruv yoshidagi oʻsmirlarda aniqlangan kasalliklarni profilaktika qilish, davolash, va sogʻlomlashtirish uchun yuborilgan oʻsmirlarni sogʻlomlashtirish guruhlariga biriktirsin;

oʻsmirlarni viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi huzuridagi chaqiriluvchilarni harbiy texnika mutaxassisliklari boʻyicha tayyorlash Markaziga, Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi oliy harbiy taʼlim muassasalariga hamda harbiy yoʻnalishdagi akademik litseylarga oʻqishga saralab olishda malakali shifokor mutaxassislar bilan taʼminlab, oʻz vaqtida tuman, viloyat va muqobil tibbiy koʻrik ishlarini tashkillashtirsin.

7. Shahar va tumanlar hokimliklari:

umumiy oʻrta taʼlim maktablarida chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik fani oʻqituvchilarining xonalari jihozlanishida, oʻquv moddiy bazasining taʼminlanishida hamda mustaqillik yillarida vatanimiz sarhadlarini himoya qilishda qahramonlarcha halok boʻlgan harbiy xizmatchilarning hayoti va faoliyatini yoritib beruvchi xotira burchaklarining tashkil etilishida;

umumiy oʻrta taʼlim maktablari, oʻrta-maxsus, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylari oʻquvchi-yoshlarini harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy gʻurur va iftixor-tuygʻusini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, davra suhbatlari, ushrashuvlar va boshqa tadbirlarning doimiy ravishda tashkillashtirilishida amaliy yordam koʻrsatsinlar.

8. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining oʻrinbosari I.Saparov hamda viloyat hokimligi guruh rahbari A.Karimov zimmalariga yuklansin.

Surxondaryo viloyati hokimi



Bobolov T.A.

Сурхондарё вилоят ҳокимининг
2021 йил 29 сентябрдаги
61-8-0-F/21-сон фармойишига
1-илова

2021/2022 о‘quv yilida Surxondaryo viloyatida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik ishlarini tashkillashtirish bo‘yicha asosiy tadbirlar rejasini

T/r	Tadbir nomi	Bajarish uchun mas‘ular	Bajarish muddati
1.	2020-2021 o‘quv yili yakuni bo‘yicha viloyatda chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik ishlari yuzasidan hisobotlar tayyorlash va 2021-2022 o‘quv yili uchun asosiy vazifalarni belgilash	Viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi (I.Kambarov), Termiz davlat universiteti rektori (A.Maraximov), I.Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universiteti Termiz filiali (O‘.Axmedov), viloyat Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (R.Salomova), viloyat Xalq ta’limi boshqarmasi (S.Hamidova), shahar va tuman hokimliklari	oktabr
2.	Viloyat Mudofaa ishlari, viloyat Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi, Xalq ta’limi, Sog‘liqni saqlash boshqarmalari va ularning bo‘ysinuvidagi bo‘limlari tomonidan chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik ishlarining 2021-2022 o‘quv yili uchun asosiy tadbirlar rejasini ishlab chiqish.	Viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi (I.Kambarov), Termiz davlat universiteti rektori (A.Maraximov), I.Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universiteti Termiz filiali (O‘.Axmedov), viloyat Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (R.Salomova), viloyat Xalq ta’limi boshqarmasi (S.Hamidova), viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (K.Abduvoxidov)	oktabr

T/r	Tadbir nomi	Bajarish uchun mas'ular	Bajarish muddati
3.	Shahar va tumanlarda chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik ishlarining ahvolini yaxshilash bo'yicha hamda 2020/2021 o'quv yili yakuni hisobotlari va yangi 2021/2022 o'quv yili uchun qo'yilgan vazifalar to'g'risida maktab, kollej va akademik litsey direktorlari, ChQBT rahbarlari va fani o'qituvchilari bilan o'quv uslubiy seminarlar o'tkazish.	Viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi (I.Kambarov), Termiz davlat universiteti rektori (A.Maraximov), I.Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universiteti Termiz filiali (O'.Axmedov), viloyat Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (R.Salomova), viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi (S.Hamidova), tuman va shahar hokimliklari	oktabr
4.	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani rahbarlari va o'qituvchilari bilan bir kunlik (har oy), uch va besh kunlik mashg'ulotlar o'tkazish.	Viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi (I.Kambarov), viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (A.S.Ismoilov), viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (N.Qodirov), Termiz davlat universiteti rektori (A.Maraximov), I.Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universiteti Termiz filiali (O'.Axmedov), viloyat Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (R.Salomova), viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi (S.Hamidova), viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi (K.Abduvoxidov)	reja asosida

T/r	Tadbir nomi	Bajarish uchun mas'ular	Bajarish muddati
5.	O'quv yili boshida maktab, kollej va akademik litseylarning o'quv moddiy bazasining tashkiliy va rejaviy hujjatlari bo'yicha ko'rik-tanlov o'tkazish.	Viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi (I.Kambarov), Termiz davlat universiteti rektori (A.Maraximov), I.Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universiteti Termiz filiali (O'.Axmedov), viloyat Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (R.Salomova), viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi (S.Hamidova) va ularning bo'ysinuvidagi bo'limlari, shahar va tumanlar hokimliklari	oktabr-noyabr
6.	Maktab, kollej va akademik litsey o'quvchi-yoshlariga bo'lg'usi askarlarni Vatanga sadoqatli qilib tarbiyalash, Qonunlar, harbiy Nizomlar talablarini bajarish, harbiy xizmat O'zbekiston Respublikasi fuqarosining faxrli burchi ekanligini chuqur tushuntirish.	Janubiy operativ qo'mondonligi boshlig'i P.Satvaldiyev, viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi (I.Kambarov), Termiz davlat universiteti rektori (A.Maraximov), I.Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universiteti Termiz filiali (O'.Axmedov), viloyat Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (R.Salomova), viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi (S.Hamidov), biriktirilgan harbiy qism komandirlari	har oyda

T/r	Tadbir nomi	Bajarish uchun mas'ular	Bajarish muddati
7.	Harbiy kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish, harbiy-texnika mutaxassisligiga, oliy harbiy ta'lim muassasalariga, harbiy akademik litseylarga o'qishga kirish istagini bildirgan o'quvchilarni aniqlab, ularni o'rganish ishlarini amalga oshirib borish va targ'ibot-tashviqot ishlarini o'tkazish.	Janubiy operativ qo'mondonligi boshlig'i P.Satvaldiyev, viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi (I.Kambarov), Termiz davlat universiteti rektori (A.Maraximov), I.Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universiteti Termiz filiali (O'.Axmedov), viloyat Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (R.Salomova), viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi (S.Hamidova),	reja asosida
	Muntazam ravishda o'quvchi-yoshlarga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida o'tkazilayotgan islohotlar, harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar haqida tushuntirish ishlarini olib borish.	Janubiy operativ qo'mondonligi boshlig'i P.Satvaldiyev, viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi (I.Kambarov), Termiz davlat universiteti rektori (A.Maraximov), I.Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universiteti Termiz filiali (O'.Axmedov), viloyat Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (R.Salomova), viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi (S.Hamidova), biriktirilgan harbiy qism komandirlari	har oyda

T/r	Tadbir nomi	Bajarish uchun mas'ular	Bajarish muddati
8.	Yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi, Jamoatchilik kengashi hamda viloyat Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasi va jamoat tashkilotlari bilan birgalikda o'quvchi-yoshlarga Vatanga, o'z xalqiga sadoqat, mamlakatimizning tarixi hamda o'z Ona-Vatanini himoya qilish borasidagi konstitutsion majburiyatlari, O'zbekiston Respublikasining mudofaa qudratini mustahkamlash borasida davra suhbatlar va uchrashuvlar tashkil etish.	Viloyat hokimining o'rinbosari-Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'i (F.Toirov), Janubiy operativ qo'mondonligi boshlig'i P.Satvaldiyev, viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi (I.Kambarov), Termiz davlat universiteti rektori (A.Maraximov), I.Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universiteti Termiz filiali (O'.Axmedov), viloyat Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (R.Salomova), viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi (S.Hamidova), , Yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi (U.Choriyev), Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi (N.Rahmatullayeva)	har oyda

T/r	Tadbir nomi	Bajarish uchun mas'ular	Bajarish muddati
9.	Urush va mehnat faxriylari, Qurolli Kuchlar faxriylari, Fan va madaniyat xodimlarini jalb qilgan holda o'quvchi-yoshlar bilan uchrashuvlar tashkil etish.	Viloyat hokimining o'rinbosari-Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'i (F.Toirov), Janubiy operativ qo'mondonligi boshlig'i P.Satvaldiyev, viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi (I.Kambarov), Termiz davlat universiteti (A.Maraximov), Toshkent davlat Texnika universiteti Termiz filiali (O'.Axmedov), viloyat Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (R.Salomova), viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi (S.Hamidova), Yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi (U.Choriyev), Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi (N.Rahmatullayeva), "Nuroni" jamg'armasi viloyat bo'limi (O.Soatov)	har oyda
10.	Chaqiruvga qadar yoshlarni tayyorlash ishlari yuzasidan o'qituvchilarning ilg'or tajribasini gazeta hamda ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib qilish.	Termiz davlat universiteti rektori (A.Maraximov), I.Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universiteti Termiz filiali (O'.Axmedov), viloyat Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (R.Salomova), viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi (S.Hamidova), tuman va shahar hokimliklari	yanvar, fevral, mart

T/r	Tadbir nomi	Bajarish uchun mas'ular	Bajarish muddati
11.	Shahar va tumanlarda joylashgan maktablarda, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlarda va litseylarda chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari tomonidan o'quvchilarning o'qitilishi va hujjatlari yuritilishini tekshirish va o'rganib borish.	Viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi (I.Kambarov), Termiz davlat universiteti rektori (A.Maraximov), I.Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universiteti Termiz filiali (O'.Axmedov), viloyat Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (R.Salomova), viloyat halq ta'limi boshqarmasi (S.Xamidova)	har oyda
12.	"Temurbeklar", "Vatanparvarlar", "Burgut" harbiy-sport musobaqalarini va harbiy o'yinlarining sifatli tashkil etilishi hamda o'tkazilishi bo'yicha umumta'lim maktablari, kollej, kasb-hunar maktablari, akademik litseylarga amaliy yordam ko'rsatish va ishtirok etish hamda g'olib va sovrindorlarni qimmatbaho sovg'alar bilan rag'batlantirish uchun mablag'lar viloyat va tuman (shahar) hokimliklari budjetlarining zaxira mablag'laridan ajratish.	Janubiy operativ qo'mondonligi boshlig'i P.Satvaldiyev, viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi (I.Kambarov), Termiz davlat universiteti rektori (A.Maraximov), I.Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universiteti Termiz filiali (O'.Axmedov), viloyat Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (R.Salomova), viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi (S.Hamidova), viloyat Moliya bosh boshqarmasi (B.Xursanov) tuman (shahar) hokimliklari, birlashtirilgan harbiy qism komandirlari, mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda	reja asosida

T/r	Tadbir nomi	Bajarish uchun mas'ular	Bajarish muddati
13.	<p>“Eng yaxshi chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchisi” hamda “Eng yaxshi chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qitilayotgan ta’lim muassasasi” musobaqalarining sifatli tashkil etilishi va o‘tkazilishi bo‘yicha umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar maktablari, kollejlari va akademik litseylarga amaliy yordam ko‘rsatish va ishtirok etish hamda g‘olib va sovrindorlarni qimmatbaho sovg‘alar bilan rag‘batlantirish uchun mablag‘lar viloyat va tuman (shahar) hokimliklari budjetlarining zaxira mablag‘laridan ajratish.</p>	<p>Janubiy operativ qo‘mondonligi boshlig‘i P.Satvaldiyev, viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi (I.Kambarov), Termiz davlat universiteti rektori (A.Maraximov), I.Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universiteti Termiz filiali (O‘.Axmedov), viloyat Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (R.Salomova), viloyat Xalq ta’limi boshqarmasi (S.Hamidova), viloyat Moliya bosh boshqarmasi (B.Xursanov) tuman (shahar) hokimliklari, birlashtirilgan harbiy qism komandirlari, mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda</p>	
14.	<p>Umumta’lim maktablarining, kasb-hunar maktablari kollejlarning va akademik litseylarining o‘quvchi yoshlarini jalb qilgan holda harbiy qismlarga ekskursiyalar tashkil etish.</p>	<p>Janubiy operativ qo‘mondonligi boshlig‘i P.Satvaldiyev, viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi (I.Kambarov), Termiz davlat universiteti rektori (A.Maraximov), Toshkent davlat Texnika universiteti Termiz filiali (O‘.Axmedov), viloyat Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (R.Salomova), viloyat Xalq ta’limi boshqarmasi (S.Hamidova), birlashtirilgan harbiy qism komandirlari</p>	reja asosida

T/r	Tadbir nomi	Bajarish uchun mas'ular	Bajarish muddati
15.	Viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi bilan hamkorlikda chaqiruv yoshidagi o'smirlarda aniqlangan kasalliklarni profilaktika qilish, davolash va sog'lomlashtirish guruxlariga birlashtirish	Viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi (K.Abduvoxidov), shahar va tuman mudofaa ishlari bo'limlari, Xalq ta'limi bo'limlari, kollej va akademik litseylar rahbarlari bilan hamkorlikda	reja asosida
16.	O'smirlarni viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi huzuridagi chaqiriluvchilarni harbiy texnika mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlash Markaziga, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi oliy harbiy ta'lim muassasalariga hamda harbiy akademik litseylarga o'qishga saralab olishda o'z vaqtida malakali shifokor mutaxassislar bilan ta'minlash.	Viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi (K.Abduvoxidov)	Viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi bergan rejaga asosan